

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 iyundagi PQ-210-sون “O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”ги Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”ги qarori bilan tasdiqlangan “yo'l xarita”да belgilab berilgan chora-tadbirlar bo'yicha Ichki ishlар vazirligining nazorat rejasi tasdiqlanib, joriy yil 21 iyunda tarkibiy va hududiy bo'linmalariga ijro uchun yuborildi.

O'tgan davrda ichki ishlар organlari tizimida manfaatlar to'qnashuvi holatlarining barvaqt oldini olish borasida quyidagi ishlар amalga oshirilgan:

“yo'l xarita”ning 5, 6-bandlari bo'yicha: ichki ishlар organlarida yaqin qarindoshlar bevosita buysinuvida yoki nazorat yo'nalishidagi lavozimlarda, shuningdek, o'rindoshlik asosida xizmat qilayotgan xodimlar aniqlanmadи;

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi PQ-3413-sон qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlар organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom”ning 58-bandida xodimlarni lavozimga tayinlashda, bunga vakolatli boshliqlar tomonidan o'zaro qarindosh bo'lган xodimlar (ota-on, turmush o'rtog'i, aka-uka, opa-singil, farzandlar, shuningdek turmush o'rtog'ining ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari), agar unda xizmat o'tash birining ikkinchisiga bo'ysinishi yoki nazorat ostida bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, bir bo'linmadagi lavozimlarga tayinlanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

9-bandи bo'yicha: ichki ishlар organlaridan bo'shatilgan sobiq xodimlardan birontasi ikki yil ichida o'z xizmat joyiga (*jumladan, bevosita nazoratida bo'lган bo'linmalarga*) xizmatiga qayta qabul qilinmadи;

11-bandи bo'yicha: ichki ishlар organlarida xizmat qilayotgan xodimlar orasida tadbirkorlik sub'ektining aktsiyalariga yoki ustav fondidagi ulushlariga egalik qilishi, shuningdek, ushbu tadbirkorlik sub'ektlarining boshqaruв organi a'zosi bo'lганlik holatlari aniqlanmadи.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining “Ichki ishlар organlari to'g'risida”ги Qonunning 30-moddasiga muvofiq, ichki ishlар organlarining xodimlariga ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi taqiqlangan.

Shuningdek, Ichki ishlар vazirligi korruptsiyaga qarshi kurashish ishlарining samaradorligini reyting baholash tizimi «E-anticor.uz» platformasiga kiritilmaganligi sababli, **“yo'l xarita”ning 12-bandida** belgilangan topshiriqni, ya'ni mazkur tizimda joylashgan 2023 yildagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati yo'qligi ma'lum qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlарining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”ги 2022 yil 12 yanvardagi PQ-81-sон qaroriga muvofiq, korruptsiyaga qarshi kurashish ishlар samaradorligini baholash o'tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga Ichki ishlар vazirligi kiritilmagan.

Shu bilan birga, ayrim bandlari bilan belgilangan chora-tadbirlar yuzasidan idoraviy nazorat tizimi yaratilgan.

Misol uchun, **13-bandida belgilangan vazifalar**, ya'ni ichki ishlар organlari

xizmatiga qabul qilinayotgan hamda boshqa lavozimlarga o'tkazilayotgan nomzodlar yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish majburiyati yuklatilganligi sababli, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimasligi uchun doimiy nazorat qilish amaliyoti tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Joriy yilning shu kuniga qadar vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi PQ-3413-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 7-bandida ichki ishlar organlariga xizmatga kirish istagini bildirgan shaxs o'zining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, er-xotin, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari) haqidagi ma'lumotlarini taqdim etishi shart ekanligi belgilangan.

15-bandi bo'yicha: ichki ishlar organlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish va ularni tartibga solish bo'yicha normalar O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi Ichki ishlar organlari to'g'risida O'RQ-407-son Qonunining 30-moddasida Ichki ishlar organlarining xodimlariga ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish mumkin emasligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29

noyabrdagi

PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 58-bandida xodimlarni lavozimga tayinlashda, bunga vakolatli boshliqlar tomonidan o'zaro qarindosh bo'lган xodimlar (ota-onasi, turmush o'rtog'i, aka-uka, opa-singil, farzandlar, shuningdek turmush o'rtog'inining ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari), agar unda xizmat o'tash birining ikkinchisiga bo'ysunishi yoki nazorat ostida bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, bir bo'linmadagi lavozimlarga tayinlanishiga yo'l qo'yimasligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023 yil 20 fevraldag'i 75-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta'minlash faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida nizomning 340-bandida rahbar kadrlar zaxirasi nomzodlarning kasbiy, axloqiy, ma'naviy va boshqa xususiyatlari hisobga olinishi hamda rahbarlar tomonidan tanishbilishchilikka va qarindosh-urug'chilikka yo'l qo'ymaslik belgilangan.

Mazkur normalarni amalda ijrosi ta'minlanishi bo'yicha har bir nomzod lavozimga tayinlanishidan oldin Ichki ishlar organlarining Shaxsiy xavfsizlik bo'linmalari tomonidan atroflicha o'rganilib, lavozimga tayinlash yoki tayinlanmasligi bo'yicha xulosa beriladi hamda ijrosi nazorati yuritiladi.

16-bandi bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 21 oktyabrdagi "Ichki ishlar organlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

400-son buyrug'i tasdiqlangan bo'lib, mazkur buyruq bilan barcha ichki ishlar organlarida "Intizomiy kengash"lar (odob-axloq komissiyasi) tashkil etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yildagi (*yopiq*) qaroriga asosan Vazirlik tizimidagi O'z xavfsizligi boshqarmasi, Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etilib, faoliyati yo'lga qo'yilgan (*ichki nazorat tuzilmasi*).

17-bandi bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning quyi tizimlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-son Qonuni va Ichki ishlar vazirining tegishli buyruqlari asosida olib borilmoqda.

24-bandi bo'yicha: Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 5 noyabr kuni ro'yxatga olingan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024 yil 21 oktyabr kunidagi 65-son buyrug'i vazirlik veb-saytiga joylashtirilganligini ma'lum qilamiz.

(<https://gov.uz/oz/iiv/pages/mavjud-manfaatlar-toqnashuvi-togrismidagi-xabarnoma-va-ehtimoliy-manfaatlar-toqnashuvi-togrismidagi-deklaratsiyaning-namunaviy-shakli>)

32-bandi bo'yicha: Ichki ishlar vazirligida manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari tashkil etilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan ("1102" Ishonch telefoni).

(<https://gov.uz/uz/iiv/pages/korrupsiya-haqida-xabar-berishga-mo-ljallanganalohida-aloga-kanallari-to-g-risidagi-ma-lumotlar>), (https://t.me/fviib_uz/19897), (<https://t.me/namanganiibuz/31207>), (<https://t.me/kashuvd/53595>), (<https://t.me/kashuvd/48707>)

Qayd etish lozimki, o'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2024 yilning 29 noyabrdagi qabil qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1008-son qonunining 4-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-sonli qonuniga ichki ishlar organlarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarni oldini olish bo'yicha qo'shimchalar kiritildi.